

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yil uchun Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 51 263,0 mlrd so'mni tashkil etdi va 2023- yil bilan taqqoslaganda 6,4 % ga o'sdi.



YAHM deflyator indeksi 2023- yilga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.

## 2024- yil uchun Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi





## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2023- yil	2024- yil	
<b>I. YAHM, jami</b>	43 666,7	51 263,0	106,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	42 750,1	50 333,5	106,4
mahsulotlarga sof soliqlar	916,6	929,5	106,7
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>42 750,1</b>	<b>50 333,5</b>	<b>106,4</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>16 175,7</b>	<b>17 540,7</b>	<b>103,0</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>10 079,7</b>	<b>12 531,1</b>	<b>109,4</b>
sanoat	6 439,0	8 061,0	108,2
qurilish	3 640,7	4 470,1	111,4
<b>xizmatlar</b>	<b>16 494,7</b>	<b>20 261,7</b>	<b>107,8</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5 931,3	7 358,6	111,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 251,8	3 053,9	115,5
boshqa xizmat tarmoqlari	8 311,6	9 849,2	103,1





Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 25 453,3 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,4 % ga yuqoridir.

## 2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so‘mda)



## 2023-2024- yillar uchun aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilga nisbatan % hisobida)





## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2023- yil	2024- yil
<b>I. YAHM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	98,2
mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	1,8
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi</b>	<b>37,8</b>	<b>34,8</b>
<b>sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>23,6</b>	<b>24,9</b>
sanoat	15,1	16,0
qurilish	8,5	8,9
<b>xizmatlar</b>	<b>38,6</b>	<b>40,3</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	13,9	14,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,3	6,1
boshqa xizmat tarmoqlari	19,4	19,6



2024- yil uchun hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 98,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 1,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 34,8 % ni, sanoat tarmog'i 16,0 % ni, qurilish 8,9 % ni va xizmatlar sohasi 40,3 % ni tashkil qildi.

## 2023-2024- yillar uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)






## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQRARISH

6

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,1 f.p. (2023- yilda – 1,7 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,2 f.p. (2023- yilda – 1,0 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,9 f.p. (2023- yilda – 0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2023- yilda – 1,4 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2023- yilda – 0,2 f.p.)ga ko'paydi.

### 2024- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2024- yil uchun YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 34,8 %), sanoatda – 108,2 % (16,0 %), qurilishda – 111,4 % (8,9 %), xizmatlar sohasida – 107,8 % ni (40,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,5 % (14,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 115,5 % (6,1 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,1 % dan (19,6 %) iborat bo'ldi.

## 2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)






## YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQUARISH

8

2024- yilda YAHM deflyatori indeksi 2023- yildagi narxlarga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 115,7 % va xizmatlarda – 113,9 % qayd etildi.

### 2023-2024- yillar uchun YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)





2024- yil uchun kichik tadbirkorlik 36 404,2 mlrd so‘mni tashkil etdi (2023- yilda – 31 062,7 mlrd so‘m). YAHMdagi ulushi 72,3 % ni (2023- yilda – 72,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog‘liq.

## 2023-2024- yillar uchun kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)

